

TEXNIK SHARTLAR, STANDARTLARNI JORIY QILISH MUDDATI VA ASOSIY TAMOIYILLARI.

M.Eshonqulova

Jizzax politexnika instituti assistent

Annotatsiya: standartlashtirish doimo muhim amaliy vazifalarni hal qilishga yo'naltiriladi va ilmiy texnik taraqqiyotga xizmat qiladi. Yuqorida aytganimizdek, yangi turdagi davlat standartlarini ishlab chiqish va amalda bo'lganlarini qayta ko'rib chiqish.

Аннотация: стандартизация всегда направлена на решение важных практических задач и служит научно-техническому прогрессу. Как мы уже говорили выше, разработка и внедрение новых видов государственных стандартов пересмотреть те, что были.

Annotation: standardization is always aimed at solving important practical problems and serves scientific and technological progress. As we said above, the development and implementation of new types of state standards should review those that were.

Kalit so'zlar: chegaraviy, standartlar, kvalitet, xatolik, st'byudent, ishonchlilik, taqqoslash, parametr, kvadrat, o'lchamlar.

Ключевые слова: предельные, стандарты, качество, погрешность, надежность, сравнение, параметр, квадрат, размеры.

Keywords: borderline, standards, quotient, error, styling, reliability, comparison, parameter, square, dimensions.

O'zbekiston Respublikasi standartlari va texnikaviy shartlarini ishlab chikish, odatda har bir manfaatdor korxonona va tashkilotning muxtor vakili bulgan mutaxassislardan tashkil topgan texnikaviy kumitalar (TK) kuchi bilan yoki standartlash buyicha tayanch tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi [1]. Standartlashtirish doimo muhim amaliy vazifalarni hal qilishga yo'naltiriladi va ilmiy

texnik taraqqiyotga xizmat qiladi. Yuqorida aytganimizdek, yangi turdagi davlat standartlarini ishlab chiqish va amalda bo'lganlarini qayta ko'rib chiqish har yili shakllantiriladigan "Yangi turdagi davlat standartlarini ishlab chiqish va amalda bo'lganlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha respublika standartlashtirish rejasi"ga asosan amalga oshiriladi. U muayyan tamoyillarga amal qilgan holda o'tkaziladi. Ko'rib chiqilgan xato tarkibiy qismlarini kamaytirish uchun sxemalarga muvozanatni kiritish kerak. [2,3].

Kommutatorning eng maqbul varianti nazorat sargisining qisqa tutashuv rejimida kerakli tezlikni va minimal qo'llaniladigan qarshilikni ta'minlaydigan kalit deb hisoblanishi kerak [4].

Tizimlilik tamoyili. Texnik rivojlanish va mahsulot sifatini oshirish ishlab chiqarish jarayoniga, jumladan standartlashtirishni o'tkazishga tizimli yondashuvni talab qiladi. Hozirgi paytda standartlashtirish ishlab chiqarishning xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va tayyor mahsulotdan foydalanishning barcha bosqichlarini qamrab olgan bo'lishi, shuningdek barcha turdagi mahsulotlar sifatiga o'zaro aloqadorlikdagi talablar o'rnatishi kerak. Kompleks va oldinda boruvchi standartlashtirishni amalga oshirish, mahsulot sifatini nazorat qilishning kompleks tizimlarini joriy etish tizimlik tamoyiliga asoslanadi [5].

Qulaylik tamoyili. Sanoat va ishlab chiqarishning ko'p tarmoqlarida qo'llaniladigan buyumlarga standartlar belgilanadi. Ular parametrlarning katta diapozonida tarqaladi va shuning uchun standartlar ishlab chiqishda qulaylik tamoyilini qo'llashadi. Bu esa bir nomdagi turli buyumlar turkumlari va nomenklaturasini cheklashni, bir nomdagi buyumlar ayrim turkumlarining ishlatilish sohalari kengayishini yoki o'zaro almashinuvchanlik darajasi o'sishini ta'minlaydi, korxonalarni ixtisoslashtirish va kooperatsiyalashga, seriyali ishlab chiqarishni rivojlantirishga va mahsulotning arzolashishiga olib keladi [6].

Standartlarning ilg'orlik va maqbullik tamoyili standartlashtirishning mohiyati hisoblanadi va standartlarning qabul qilingan ta'riflarida o'z aksini topadi. Yangi

standartlar fan va texnikaning zamonaviy talablariga javob berishi kerak. Yangi standartlar joriy etish minimal xarajatlar sarf etilib, maksimal mumkin iqtisodiy samara olishni ta'minlashi kerak [1].

Funksionnal o'zaro almashinuvchanlik tamoyili standart buyumlarning ishchi ko'rsatgichlari bo'yicha o'zaro almashinuvchanligini ta'minlaydi va shuning uchun kompleks va oldinda boruvchi standartlashtirishning asosiy tamoyili hisoblanadi [2]. Standartlarni o'zaro bog'lash tamoyili. Bu tamoyilni amalga oshirmay turib, yangi umumtexnik va tarmoqlararo standartlarni ishlab chiqish, Tuzilishi raqamli qurilmalar, kontrollerlar, mikroprotessorlar, kompyuterlardan foydalanadigan tizimlar diskretdir [7], kompleks hamda standartlashtirishni rivojlantirish mumkin emas [1].

Ilmiy-tadqiqot tamoyili. Barcha turdagi standartlarni ishlab chiqish zaruriy ilmiy tadqiqot ishlari o'tkazish bilan birgalikda olib borilishi kerak [6]. Materiallar nisbiy sarfining minimallik tamoyili. Sanotda va qurilishda tayyor mahsulot qiymatining katta qismini xom ashyo, materiallar va yarim fabrikatlar narxi tashkil etadi. Ishlab chiqarish hajmini e'tiborga oladigan bo'lsak, materiallarga ketadigan xarajatlarni 1% ga kamaytirish ham juda katta iqtisodiy samara beradi. Shuning uchun standartlar ishlab chiqishda detallarning ratsional tuzilmalarini tanlash, hisoblashning yangi uslublarini ishlatish, ilg'or texnologik jarayonlardan foydalanish kerak [8].

Standartlarning patent tozaligi tamoyili. Yangi mashinalar, mexanizmlar, asboblarni loyihalash, tayyorlashda va boshqa vaziyatlarda, boshqa mamlakatlar tomonidan patentlangan original tuzilmalar, texnologik jarayonlar, sinash va o'lchash uslublari va boshqa ob'ektlardan foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bu qoidani buzish, patent qonunchiligi nuqtai nazaridan, xalqaro jazo sanksiyalarining qo'llanilishiga olib keladi [7,9]. Standartlar, texnik shartlar va rahbariy hujjatlarning amal qilish muddati ularning kafolatlash muddatini ham belgilaydi. Patent materiallarini tahlil qilish natijasida mexanik kuchlanish transformatorlarini konstruktiv takomillashtirishning bir qator umumlashtirilgan usullari olingan, bu erda

eng muhim xususiyatlar: asosiy kuchlanish yo'nalishini o'zgartirishning sezgirliги va xatosi [1,10].

Texnik shartlar, standartlarni joriy qilish muddati va asosiy tamoyillarini ta'limni xalqarolashtirish yoki ta'lim migratsiyasi ilmiy va ta'lim faoliyatida xalqaro integratsiya jarayonini anglatadi. Ushbu jarayonning roli katta, chunki u mamlakatlar va xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni faollashtiradi, ta'lim sohasidagi yutuqlar bilan o'zaro almashinuvni kengaytiradi, shuningdek talabalar o'rtasidagi o'zaro almashinuvni kengaytiradi. Mamlakatlarning rivojlanishi uchun bu jarayon o'z ta'siriga ega. Hozirgi vaqtda universitetlarning axborot va ta'lim muhiti yaratilayotgani va ularda o'quv mazmuni joylashtirilganligi sababli, ijtimoiy-madaniy, lingvistik va akademik moslashuvdan tashqari, kichik kurs talabalari uchun axborot ta'lim resurslaridan foydalanishga tayyorgarlikni shakllantirish vazifasi turibdi [11,12].

Adabiyotlar

1. Tojiyev R.J., Yusupov A.R., Rajabova N.R. Qurilishda metrologiya, standartlash va sertifikatlashtirish darslik – Toshkent: «Yosh avlod matbaa», 2022. – 464 b.

2. Ismatullaev P. R, Shertaylakov G. M, Kudratov J X, Abduraxmanov A.A, Razrabotka avtomaticheskix vlagomerov dlya produktov agropromyshlennogo kompleksa ISSN 2072-0297 «Molodoy uchyonyy» . № 4 (108) . Fevral, 2016 g.

3. Мухаммадиев Б. С. ИНЖЕНЕРНАЯ МЕТОДИКА РАСЧЕТА НАКЛАДНЫХ ТРАНСФОРМАТОРНЫХ ПРЕОБРАЗОВАТЕЛЕЙ МЕХАНИЧЕСКИХ НАПРЯЖЕНИЙ С ДИСКРЕТНЫМ ВЫХОДОМ //Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 154-162.

4. Мухаммадиев Б. С., Эшонкулова М. Н. ОПРЕДЕЛЕНИЕ ОПТИМАЛЬНЫХ СООТНОШЕНИЙ ПАРАМЕТРОВ ПРЕОБРАЗОВАТЕЛЯ

МЕХАНИЧЕСКИХ НАПРЯЖЕНИЙ С ДИСКРЕТНЫМ ВЫХОДОМ
//Экономика и социум. – 2021. – №. 11-2 (90). – С. 207-211.

5. Shertaylakov Gayrat Murodovich, starshiy prepodavatel; Karimov Shavkat, starshiy prepodavatel; Abduraxmanov Aziz Abduxalikovich, assistant; Kudratova Gulnoza ToxirovnaPonyatie o izmerenii «Molodoy uchyonyu» . № 6 (140) vi . Fevral 2017 g. ISSN 2072-0297

6. Abduraxmanov A.A."Ekonomika i sotsium" №10(89) 2021 www.iupr.ru
ROL STANDARTIZATSII V POVYISHENII KACHESTVA PRODUKSII

7. Muhammadiev Bakhtiyar Saparovich. (2023). APPLICATION OF A TRANSFORMER CONVERTER WITH A DISCRETE OUTPUT IN AN AUTOMATIC CONTROL SYSTEM . Academic Research Journal, 2(1), 150–155.

8. Abdurakhmanov Aziz Abduxaliqovich. MEASUREMENT UNCERTAINTY EVALUATION IN THE DIGITAL ERA||ACADEMIC RESEARCH JOURNALIF-7.4January2023 VOLUME 1 ISSUE 7.

9. Сапарович М. Б. ПРИМЕНЕНИЕ ТРАНСФОРМАТОРНОГО ПРЕОБРАЗОВАТЕЛЯ С ДИСКРЕТНЫМ ВЫХОДОМ В СИСТЕМЕ АВТОМАТИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ //Научно-исследовательский журнал. – 2023. – с. 2. – №. 1. – с. 150-155.

10. Мухаммадиев Б. С. УЛУЧШЕНИЯ ОСНОВНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ПРЕОБРАЗОВАТЕЛЕЙ //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 196-204.

11. Мухаммадиев Б. С. ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ СТУДЕНТОВ В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 107-113.

12. Мухаммадиев Б. С. Внедрение информационных технологий при обучении студентов в российских технических вузах //World scientific research journal. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 88-93.